

## MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT MASALASI

*Abdurahmonova Mahmuda Muhammadzokir qizi  
ADPI maktabgacha ta'lif fakulteti 3 bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif muassasalari o'quvchilarini innovatsion g'oyalar asosida tarbiyalash. Bolalarga ta'lif-tarbiya berishda interfaol usullardan foydalanish xamda Interfaol metodlarni qo'llashda foydalaniladigan vositalar taxlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, zamonaviy pedagogik texnologiya, tarbiyachilar, bolalar.

*“Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat –yo falokat masalasidir”*

*A.Avloniy*

### KIRISH

Bugungi zamonaviy ta'lif tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubxasiz, yangicha, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o'quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo'l ochib berish uchun xizmat qiladi. Hozirgi davr ta'lif taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovativ E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Pedagogik texnologiya — ta'lif va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'lash, texnologik yondashuv asosida ta'lif va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi. Ta'lif mazmuni ta'lif maqsadlariga mos ravishda tanlanadi. Keyingi bosqichda didaktik jarayonlarni tanlash va ishlab chiqish amalga oshiriladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotganda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'lifning yangi-yangi usul va metodlarini izlashi,

pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham o‘quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi. Bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubxasiz, yangicha, ya’ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o‘quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo‘l ochib berish uchun xizmat qiladi. Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo‘naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida maktabgacha yoshdagি bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab, shu bilan birga rang-barangdir. Ta’lim-tarbiya samaradorligiga erishishda maktabgacha ta’lim muassasalaridagi har bir faoliyat turini to’g’ri tashkil etish lozim. Bolaga yo‘naltirilgan ta’limning mazmuni innovatsion texnologiyalar orqali “Bolajon” tayanch dasturlarining to‘liq bajarilishiga qaratilgan. Bu zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida ta’lim-tarbiya jarayonini ko‘proq muloqot va mashqlarga asoslangan o‘yin-mashg‘ulotga aylantirib, tarbiyachilarni yangicha usullardan foydalangan holda ishlashga undaydi.

## MUXOKAMA VA NATIJALAR

MTM mashg‘ulotlarida ta’lim-tarbiya berishda interfaol usullardan foydalanishdan maqsad:

- bolalarni ijodiy fikrlashga o’rgatish;
- muammoli vaziyatlarni yecha olish
- ko’nikmasini rivojlantirish;
- bolalarni faollashtirish;
- ularda do‘stona munosabatlarni shakllantirish.

Interfaol metodlarni qo‘llashda foydalaniladigan vositalar:

- ko‘rgazmali qurollar;
- texnika vositalari;
- tarqatma materiallar;
- multimedialar.

MTMlarda mashg‘ulotlar davomida eng keng qo’llaniladigan usullardan biri mantiqiy fikrlashga undovchi o‘yinlardir.

Mashg‘ulotlarda bunday o‘yinlardan foydalanish:

1. Har bir bolaga individual qobiliyatini namoyon etishga sharoit yaratadi.

2. Mantiqiy o‘yinlar aniqligi, izchilligiga ko‘ra, bola rivojlanishining eng ta’sirchan davriga to‘g‘ri keladi.
3. Mantiqiy o‘yinlar orqali bola atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini anglashga urinadi.
4. Bunday o‘yinlar bolani ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan rivojlantira oladi.
5. Mantiqiy o‘yinlar orqali bolalar o‘z oldiga maqsad qo‘yib, unga erishish yo’llarini izlab topadi.
6. Mazkur o‘yinlar bolalarni qiyin vaziyatdan qutulish choralarini izlab topishga, fikrlarini bayon etishda bir xillikdan qochishga o‘rgatadi.

Mashg’ulotlarda bunday o‘yinlardan foydalanish:

1. Guruhga 2 ta qutichada sovg‘a olib kelinadi. Birida mevali va manzarali daraxtlar rasmi. Ikkinchisida esa shu daraxtlar bargi. Bolalar har bir daraxtga tegishli barglarini topishlari kerak.
2. Guruhga kasbga oid rasm va predmetlar solingan 2 ta xatjild beriladi. Bolalar qaysi kasb egasiga qanday ish quroli zarurligini aniqlashlari hamda kasblarning hayotdagi o‘rni haqida so‘zlab berishlari lozim.

MTMlarda mashg’ulotlar davomida eng keng qo’llaniladigan usullardan biri mantiqiy fikrlashga undovchi o‘yinlardir.

Mashg’ulotlarda bunday o‘yinlardan foydalanish:

1. Har bir bolaga individual qobiliyatini namoyon etishga sharoit yaratadi.
2. Mantiqiy o‘yinlar aniqligi, izchilligiga ko‘ra, bola rivojlanishining eng ta’sirchan davriga to‘g‘ri keladi.
3. Mantiqiy o‘yinlar orqali bola atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini anglashga urinadi.
4. Bunday o‘yinlar bolani ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan rivojlantira oladi.
5. Mantiqiy o‘yinlar orqali bolalar o‘z oldiga maqsad qo‘yib, unga erishish yo’llarini izlab topadi.
6. Mazkur o‘yinlar bolalarni qiyin vaziyatdan qutulish choralarini izlab topishga, fikrlarini bayon etishda bir xillikdan qochishga o‘rgatadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan mashg’ulotlarda qo’llanilayotgan interfaol usullar ta’lim samaradorligi hamda muhitini yaxshilaydi. Tarbiyachilarining kasbiy mahorati oshadi, bolalar ijtimoiy muhitda, jamoasida o‘z o‘rnini his qila boshlaydi. Hozirgi kun talabi tez o‘zgaruvchan, murakkab va o‘zaro bir-biriga bog’liq dunyoda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Ta’limiy maqsad: mashg’ulot davomida interfaol usullarni qo‘llash orqali bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish, tovushli arifmetik amallarni bajarishga o‘rgatish.

Tarbiyaviy maqsad: bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatni yaratish, kichik guruhlarda ishlashga o‘rgatish, tabiatga va undagi jonivorlarga mehr uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi maqsad: bolalar xotira va tafakkurini topishmoqlar orqali rivojlantirish, jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol shaxsning shakllanishiga ko‘maklashish.

Mashg‘ulotning borishi:

Mana, guruhlar ham nomlandi:

1-guruh “Asalari”, 2-guruh “Kapalak”.

Tarbiyachi doskaga HASHAROT so‘zini yozadi.

Tarbiyachi: – HASHAROT so‘zida nechta tovush bor?

“Asalari” guruhi: – 7 ta tovush bor?

Tarbiyachi: – Hasharot so‘zi necha bo‘g‘in?

“Kapalak” guruhi: – 3 ta bo‘g‘in.

Tarbiyachi: – Nechta unli tovush bor?

“Asalari” guruhi: – 3 ta unli tovush bor.

Tarbiyachi: – Nechta undosh tovush bor?

“Kapalak” guruhi: – 4 ta undosh tovush bor.

Guruhlarga hasharotlar haqida 2 tadan topishmoq, 1 tadan maqol aytish vazifasi beriladi.

Topishmoqlar javobi xattaxtaga ilib qo‘yiladi.

Eslash, fikrlash qobiliyatini o‘sirish hamda mashg‘ulotni mustahkamlash uchun test savollari:

“Kapalak” guruhiga:

1. Vertolyot qaysi hasharotning uchishiga o‘xshaydi?

A) kapalak B) ninachi D) ari

2. Qaysi qush bahor elchisi?

A) bulbul B) qaldirg‘och D) musicha

1. Eng mehnatkash hasharotni toping.

A) pashsha B) qo‘ng‘iz D) chumoli

2. Qaysi qush bahorda o‘lkamizdan uchib ketadi?

A) laylak B) burgut D) qarg‘a

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod yili” Davlat Dasturi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: ”Sharq”, 1998
3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011.
4. Alimov N. Maktabgacha yoshdagи bolalarni matematik ta’limga tayyorlash . Maktabgacha ta’lim. – T., 2005.